



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDA MILLIY QADRIYATLARNING ASK ETTIRILISHI

Safarova Ozoda Alisher qizi

Abdulazizova Nigina Faxriddin qizi

Alfraganus universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari

Annotatsiya:

Mazkur maqolada globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va ularni yosh avlod ongiga chuqur singdirishning dolzarbligi yoritilgan. Xususan, ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy qadriyatlarimizni uyg'unlashtirish, bu orqali vatanparvar, ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi keng muhokama qilingan. Milliy qadriyatlar – bu ona yurtga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, ibo, andisha kabi fazilatlarni o'z ichiga olgan, asrlar davomida shakllangan bebaho meros sifatida qaraladi. Maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali milliylikni targ'ib qilish masalalari atroflicha tahlil etilgan.

Bugungi kunda yoshlar orasida "demokratiya" tushunchasining noto'g'ri talqin qilinishi, bu orqali milliy urf-odatlarga bo'lgan hurmatning pasayishi kabilar milliyligimizga tahdid solayotgan asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilib, bunday holatlarning oldini olishda pedagoglarning o'rni, ularning mas'uliyati, milliy ruhdagi tarbiyaviy ishlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qituvchining faqat ma'lumot beruvchi emas, balki tarbiyachi, yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatidagi roli ochib beriladi. Ta'lim jarayonida milliy ruhda yaratilgan topshiriqlar, mashg'ulotlar va o'quv materiallari orqali talabalar mustaqil ta'lim olishga undalishi, shu bilan birga, ularning ongiga milliy qadriyatlar chuqur singdirilishi zarurligi qayd etiladi.



Maqola yakunida, milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali nafaqat milliy mentalitetni yuksaltirish, balki yoshlarni ma'naviy, ruhiy jihatdan kuchli, o'z milliyligiga sodiq bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash mumkinligi ta'kidlanadi. Bu jarayon boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab yo'lga qo'yilishi, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar, urf-odatlar orqali yosh avlod qalbiga milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, Vatanparvarlik, Milliy ruh, Ilg'or pedagogik texnologiyalar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Tarbiya va ta'lim, Ma'naviyat va ma'rifat, O'zlikni anglash, Demokratiya va milliylik, Pedagogik metodika, Globallashuv, Milliy mentalitet, Mustaqil ta'lim, Tarixiy tajriba, O'zbek xalqining urf-odatlari

Аннотация:

В статье подчеркивается актуальность сохранения национальных ценностей и их глубокого внедрения в сознание молодого поколения в условиях глобализации. В частности, широко обсуждается вопрос интеграции национальных ценностей в образовательный процесс, что способствует воспитанию патриотичного, духовно зрелого и гармоничного поколения. Национальные ценности считаются бесценным наследием, формировавшимся веками, включая такие качества, как преданность Родине, уважение к старшим, почет к младшим, скромность, красноречие, андиша. В статье всесторонне анализируются проводимые в Узбекистане реформы, в частности, значение Национальной программы по подготовке кадров, а также вопросы воспитания национальности посредством внедрения передовых педагогических технологий. Сегодня неверное толкование понятия «демократия» среди молодёжи, приводящее к снижению уважения к национальным традициям, указывается как один из основных факторов, угрожающих нашей национальности, и подчёркивается роль педагогов, их



ответственность и важность воспитательной работы в национальном духе в предотвращении подобных ситуаций. Также через новые педагогические технологии раскрывается роль учителя не только как поставщика информации, но и как воспитателя и проводника. Отмечается, что в образовательном процессе следует поощрять учащихся к самостоятельному обучению посредством заданий, упражнений и учебных материалов, созданных в национальном духе, и в то же время глубоко прививать им национальные ценности. В конце статьи подчёркивается, что, интегрируя национальные ценности в образовательный процесс, можно не только воспитывать национальный менталитет, но и воспитывать молодёжь как духовно и морально сильных личностей, преданных своей национальности. Этот процесс должен начинаться с начальной школы, и необходимость воспитания национальной гордости и патриотизма в сердцах подрастающего поколения через народное устное творчество, национальные игры и традиции вполне обоснована.

Ключевые слова:

Национальные ценности, Патриотизм, Национальный дух, Передовые педагогические технологии, Национальная программа подготовки кадров, Образование и воспитание, Духовность и просветительство, Самосознание, Демократия и национальность, Педагогическая методика, Глобализация, Национальный менталитет, Независимое образование, Исторический опыт, Традиции узбекского народа

Abstract:

This article highlights the urgency of preserving our national values and deeply instilling them in the minds of the younger generation in the process of globalization. In particular, the issue of integrating our national values into the educational process, thereby raising a patriotic, spiritually mature, and harmonious generation, is widely discussed. National values are considered an invaluable



heritage that has been formed over centuries, including such qualities as loyalty to the motherland, respect for elders, honor for younger ones, modesty, eloquence, andisha. The article comprehensively analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan, especially the importance of the National Personnel Training Program, and the issues of promoting nationality through the introduction of advanced pedagogical technologies.

Today, the misinterpretation of the concept of "democracy" among young people, which leads to a decrease in respect for national traditions, is indicated as one of the main factors threatening our nationality, and the role of educators, their responsibility, and the importance of educational work in the national spirit are emphasized in preventing such situations. Also, the role of the teacher as not only a provider of information, but also an educator and guide is revealed through new pedagogical technologies. It is noted that in the educational process, students should be encouraged to learn independently through assignments, exercises, and educational materials created in the national spirit, and at the same time, national values should be deeply instilled in their minds. At the end of the article, it is emphasized that by integrating national values in the educational process, it is possible not only to raise the national mentality, but also to educate young people as spiritually and mentally strong individuals who are loyal to their nationality. This process should be initiated from the primary education stage, and the need to instill national pride and patriotism in the hearts of the younger generation through folk oral art, national games, and traditions is justified.

Keywords: National values, Patriotism, National spirit, Advanced pedagogical technologies, National personnel training program, Education and training, Spirituality and enlightenment, Self-awareness, Democracy and nationality, Pedagogical methodology, Globalization, National mentality, Independent education, Historical experience, Traditions of the Uzbek people



“Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e‘zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir”.¹

Milliy tariximiz, qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni yaratish uchun avvalo, yoshlarimiz milliy g‘urur va milliy ruhda tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim! Milliy ruh deganda har bir o‘zbek farzandining odob-axloqida, xulq-atvorida, yurish-turishida hattoki so‘zlashuv muloqotida milliyligimizni namoyon etib turadigan o‘ziga xos sifatlari bo‘lishi kerak. Bugungi kundagi globallashuv jarayonida esa yurtimizga juda ko‘p yangiliklar, imkoniyatlar kirib kelgani va shu bilan birga milliyligimizga zid bo‘lgan urf-odatlar ham mavjudligi, yurtimizda turli muammolarni yuzaga keltirdi. Milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan bunday jarayonlarni avj olib ketmasligi uchun davlatimiz rahbari tomonidan maktablar, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qator qaror va farmoyishlar ishlab chiqilganligi buning yaqqol misolidir.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, bo‘lajak pedagog kadrlarni xalqaro standartlar to‘la javob bera oladigan barkamol shaxs, milliy qadriyatlarimizni jahonga namoyish qiladigan kadrlar bo‘lishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasi uchun yuqori darajali kadrlar tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlarimizni ham uyg‘unlashtirib borilishi, kelajakda yoshlarni o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga ehtirom, vatanparvar, o‘z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaydigan ezgu sifatlarga ega bo‘lgan talaba-yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Xususan,

¹ Sh.M.Mirziyoyev hikmatli so‘zlari



yurtimizning ko‘p asrlik milliy qadriyatlarini bilmasdan turib, milliy g‘urur haqida gapirish mumkin emas.

Xalqimizning ko‘p yillardan buyon shakllanib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz uzoq tarixiy jarayonda vujudga kelgan bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish, zamonaviy pedagogik texnologiya va ta‘lim metodlarida o‘z aksini topmog‘i lozim. Zero, milliy qadriyatlarimiz - ona yurtga sadoqat, vatanparlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, har qanday sharoitda ham ibo, hayo va andishani saqlash kabi fazilatlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan va xalqaro maydonda mafkuraviy hamda informatsion g‘oyalar kurashlari kuchayib borayotgan hozirgi tahlikali davrda: turli xil yot g‘oya va mafkuraviy hurujlardan himoyalana oladigan, milliy mafkuraviy hislatlarga ega, atrofda yuz berayotgan voqealarga befarq bo‘lmagan, milliy qadriyatlarimizdan g‘ururlanish hissini sezib yashaydigan, o‘zligini va o‘zbek xalqini milliyligini targ‘ib eta oladigan barkamol shaxs va iqtidorli kadrlar bo‘lib yetishishlarini talab qilmoqda. Mafkuraviy hamda informatsion kurashlar deganda, bugungi kunda “Demokratiya” tushunchasini yoshlarning aksariyat qismi noto‘g‘ri talqin qilishi oqibatida, milliylikimiz hamda milliy urf-odatlarimizga bo‘lgan hurmat, e‘tibor sustlashib bormoqda. Ya’ni demokratiya tushunchasini liberallizm tushunchasi bilan almashtirib qo‘yishilishi natijasida hammamizga ma’lum, milliylikimizga tahdid soluvchi odatlar shakllanmoqda. Bu esa, milliy qadriyatlarimiz va milliy urf-odatlarimizga zid keluvchi ishlarni kuchayishiga olib keladi. Bunga birgina misol tariqasida, bugungi kundagi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga kelayotgan o‘zaro munosabatlardagi hurmatsizliklarni aytishimiz mumkin. Barchamizga ma’lumki azaldan xalqimiz, “Ustoz–otangdek ulug‘” degan hikmatni bejiz aytishmagan. O‘tgan ota – bobolarimiz ustoz–u muallimlarini qadrini yaxshi bilishgan va shunga yarasha hurmat, ehtirom ila muomila qilishgan. Ammo bugungi kunga kelib, barchasi unutilmoqda va albatta, bunday jarayon yanada avj olib ketmasligi uchun



ta'lim jarayoniga milliy qadriyatlarimizni uyg'unlashtirmog'imiz zarur. Ya'ni, milliy axloqiy qadriyatlarimizni hayotimizda tutgan o'rni haqida bo'lajak kadrlar ongiga pedagoglar tomonidan ta'lim –tarbiya metodlari orqali ijobiy singdirish lozim.

Bugungi kunda ta'lim mazmunini yanada sifatli va samarali tashkil etish, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Hozirda mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik qadriyatlari, urf-odatlarini, buyuk bobokolonlarimiz qoldirgan ilmiy-pedagogik meroslarini o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida milliylikni targ'ib etishiga, jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning ustivorligini ta'minlash, tarbiya va odob-axloq normalarini ma'naviy tarbiya nazariyasi hamda amaliyotiga tadbqiq etishni takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g'oyani singdirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlar va urf odatlarimizni mazmun –mohiyatini anglashlarida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish; shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda jahon andozalariga mos ta'lim tizimini joriy etish, ilg'or pedagogik tajribalarni milliy qadriyatlarimiz va vatanparvarlik ruhida ommalashtirish, pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida tayyorlash, ta'lim –tarbiya jarayoniga ilg'or tajribalarni tadbqiq etish, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabi vazifalarni hisobga olishni talab etadi.

Buni qanday amalga oshirish mumkin degan savolga, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, «Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratishda zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni, o'quv–tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash»ga bog'liqligi ko'rsatmoqda. Bilamizki, Milliy dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.



Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash Milliy dasturini mustaqillik sharofati bo'lsa, uni amalga oshirishning asosiy ilmiy-metodik omillaridan biri yangi pedagogik texnologiyadir. Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish, ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.²

Albatta, yangi pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Bunda milliy qadriyatlarimizni va milliylikni targ'ib etishi va rivojlantirishi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ta'lim–tarbiya jarayonida texnologiyalarni yaratishdan maqsad bo'lishi va ular kadrlar tayyorlash uchun xizmat qilishi ya'ni pedagogik texnologiyalarni yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanishi lozim.

Yaratilgan har bir pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy, o'qituvchi tomonidan bayon qilish, talabalarga tayyor bilimlarni berish usulidan voz kechib talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi talabalar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi. Bundan tashqari milliy qadriyatlarimiz, milliylikni o'zida aks etgan topshiriqlar bo'lishi yoki mavzuni milliy qadriyatlarimizga moslashtirilishi kerak. Pedagogik texnologiyaning samaradorligi yana shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo'yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida davlat ta'lim standartlarini to'la bajarishga erishadilar. Fanning mohiyati o'quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun talabaning qat'iy

² <https://www.savol-javob.com/kadrlar-tayyorlash-milliy-modeli/>



belgilangan ketma-ketlik bo'yicha har bir o'quv bo'lagini (modulini) o'zlashtirib, mustaqil faoliyat ko'rsatishidan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, faqat uzluksiz ma'ruza o'qilganda, talabalar materialni atiga 5 foizini o'zlashtirsalar, bir-birini o'qitish va mustaqil o'rganishda esa bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil qilar ekan.³

Shunday qilib, pedagogik texnologiyaning predmeti o'quv jarayoni va professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat. Tizimli yondashish o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini — maqsadni aniqlash va o'quv jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish tizimining samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va ommalashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U o'z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligi va ularni to'la o'quv jarayoniga tadbqiq etish g'oyasi, oqibat natijada bu jarayonni «jonli o'qituvchiga» bog'iq bo'lmay qolishiga olib keladi. Haqiqatan ham, agar o'quv jarayoni to'la takrorlanuvchan, alohida ko'rinishh (epizod)larga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi. Bu esa mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarda ta'lim-tarbiyaning milliy ruhda emas, balki jahon adabiyotlari va ularning madaniyatlaridan o'rnak olishga zamin yaratib berishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi pedagogik texnologiya asosida milliy qadriyatlarimizga va milliy ruhdagi metodlarga alohida e'tibor qaratish kerakligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni targ'ib etish, pedagogik texnologiyalarni milliy ruhda olib borishimiz Milliy mentalitetimizni yuksaltiradi. Zero, milliy mentalitet millatimizning aqliy intellektual salohiyati hamda ruhiy psixologik o'ziga xosliklarini ko'rsatib bera oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Chunki, bunday xarakterdagi o'ziga xoslikning negizini ijtimoiy muhit ya'ni o'zbek xalqining tarixiy tajribalari, milliy qadriyatlari, urf-

³ (Xalq ta'limi. 1999. №4 — 9 bet.).



odatlar va marosimlarining tizimini tashkil etadi. Bugun milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar, necha yillardan buyon o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodlari, milliy o'yinlar hamda ularda ifodalangan g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishimiz buni boshlang'ich ta'limdan boshlashimiz zarur.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: "SHarq" nashriyot matbaa kontserni, 1997.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishhga xizmat etsin.-T: O'zbekiston, 1998.-30 b.
3. N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.
4. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
5. Sayidahmedov N.Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
6. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. "Nasaf"2000 y.-80 b.
O'. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005